



**CHEZ TILIDAN KIRIB KELAYOTGAN SO‘ZLARNING O‘ZBEK
ADABIY TILIGA TA’SIRI**

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi

S.Hamidullayeva

Ilmiy rahbar: Ph.D.I.Yoqubov

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili va unga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarning asosiy sabablari va tahlillariga e’tibor qaratiladi. Chetdan kirib kelayotgan so‘z/terminlar bugungi o‘zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan, sotsiolingvistik jihatdan tadqiq qilinadi va shu asosida ma’lumotlar keltiriladi. O‘zbek adabiy me’yorlariga ta’sir ko‘rsatayotgan sabab va hodisalar keltirib, asoslaniladi.

Kirish. Til har bir millatning madaniy boyligi, tarixi va an’anasini tasvirlovchi ma’naviyatning ifodasi hisoblanadi. Ammo har qanday til tashqi ta’sir va muammolardan yiroqda emas. Tarixiy asrlar davomida iqtisodiy, siyosiy va ilmiy aloqalar orqali, bir millat tiliga boshqa millat tillarining yokida so‘zlashuv uslubining kirib kelishi tabiiy jarayondir. Chet tili so‘zlarining kirib kelishi foydali bo‘lish bilan birga ular milliy tilning sofligi va xosligini dolzarb muammoga aylantiradi. Yangi so‘zlar tilning boyishini ta’minlaydi ammo boshqa tomondan esa sof holatining yo‘qolishiga sabab ham bo‘ladi. Mazkur mavzuda chet tillaridan kirib kelgan so‘zlearning zamonaviy tarzda qo‘llanishi yoshlarning rivojlanishi uchun samarali ammo sof o‘zbek tilining yo‘qolib borishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Buning natijasida, o‘zbek tiliga hurmat, e’tibor pasayishi vujudga kelmoqda. Ko‘pgina yoshlar maktab yoki ta’lim muassasalarida rus tili va boshqa tillarda muloqot qilishmoqda.

O‘zbek tiliga chet so‘zlarining kirib kelishi global madaniyatning milliy madaniyatga ta’sirini kuchaytiradi. Yuqorida berilganidek bolalar orasidagi rus va ingliz tilidagi so‘zlashuv nutqi va iboralari juda ko‘p o‘zbek milliy atamalarining



yo‘qolishiga yoki keskin kamayishiga sabab bo‘lyapti va bugungi kunning dolzARB muammolaridan biriga aylanyapti. Bundan tashqari, mahalliy qadriyatlar va an’analarga soya solmoqda. Natijada ular asta-sekinlik ila yo‘qolib boryapti. Masalan: o‘n yil oldingi milliy o‘zbek nutqi va hozirgi nutq orasida juda katta farq va o‘zgarishlar bor.

Chet tillaridan yangi so‘zlarning kirib kelishi natijasida ilgari mavjud bo‘limgan atamalarning tarjimasi va ma’nosi paydo bo‘lishi tilning rivojiga hissa qo‘sha oladi. Ammo yuqoridagi sabablarning darajasini kamaytira olmaydi. Masalan, texnologiya yoki ilm fan sohasidagi yangi so‘zlar avval mavjud bo‘limgan (kompyuter, internet, marketing, streaming, blog, robototexnika kabi so‘zlar).

Chet tillarning natijasida ba’zi insonlar o‘zbek tilida ravon gapirishga ham juda qiyinalishadi va bu o‘z navbatida ona tiliga, milliy til asoslariga hurmatsizlikni, befarqlikni keltirib chiqaradi. Aholining deyarli o‘ndan faqatgina ikki yoki uch qismigina o‘zbek tilida, qolgan qismi esa boshqa tillarda so‘zlashadi. Achinarlisi, ish topish va berishda ham o‘zbek tilidan ko‘ra ko‘proq chet tillari ustunlik qiladi.

Biz chet tilining so‘zlarigina emas, balki ularning madaniyatini, talaffuzi va ohangini ham qabul qilmoqdamiz. Aholi orasida ularning grammatik jihatdan va fonetik jihatdan qanchalar keng qo‘llanilishini ular bilan suhbatlashgan insongina farqlay oladi. Bu milliy tilning o‘lishiga olib keladi. Masalan “*bloger*”, “*vayner*” kabi so‘zlar turlicha tallafuz qilinsada bir xilda yoziladi. Bulardan kelib chiqib aytса bo‘ladiki, chet tilining salbiy ta’siri bilan uning ijobiy ta’siri ham mavjud.

Ma’lumki, har qanday til ham o‘z ichki imkoniyatlari orqali va xorijiy tillardan so‘z olish orqali taraqqiy etadi. Ammo xorijiy til milliy tilning o‘zligiga putur yetkazmagan holda amalga oshishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi o‘zbek tili chet so‘z yoki shakllarning ta’sirida shikast topmayapti, deb ayta olamizmi? Bu savolga muayyan misollar va ularning tahlilisiz to‘liq javob berish qiyin. O‘zbek tili tarixan fors, tojik va arab tillaridan ko‘p so‘z olgan. XX asrda esa rus tilining ta’siri keskin ortishi kuzatilgan. Boshqa g‘arb tillarining ta’siri ham, asosan, rus tili orqali kechgan. Ammo o‘tgan asrning oxirgi o‘n yilligidan boshlab



tilimizga ingliz va boshqa yevropa tillarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirida ham so‘zlar kirib kelyapti. So‘z bir tildan ikkinchisiga shundayligicha, ya’ni sof holda o‘tmaydi. U ba’zan o‘zining turli shakllari bilan kirib keladi. Shuning uchun har bir so‘zning bir tildan ikkinchi tilga o‘tishi muayyan muammolarni paydo qiladi. Bu muammolar esa ikki tilning o‘zaro “kelishuvi” asosida hal qilinadi. Unaqasiga ham, bunaqasiga ham masala so‘zni chetdan qabul qilayotgan til zarariga hal etilmasligi zarur. Masalan, “ona tili” so‘z birikmasi ham tilimizda ruscha “родной язык” birikmasini tarjima qilish orqali XX asrda paydo bo‘lgan. Chunki ungacha bo‘lgan davrdagi o‘zbek adabiyoti namunalarida “ona tili” ifodasini uchratmaymiz. “Родной” sifatining o‘zagi – “родить”. Agar so‘zma-so‘z o‘girsak, bundan “*tug‘ishgan til*”, “*tug‘ilgandagi til*” degan ma’no chiqadi. Kimdir yuz yilcha muqaddam tarjimaga ijodiy yondashib, to‘g‘ri yechim topgan va buni “ona tili” deb o‘girgan. Ammo bu endi birlikdagi uchinchi shaxsda turibdi. Shuning uchun, o‘zbek tili tabiatiga ko‘ra, unga birlikdagi birinchi shaxsning qo‘sishmchasini qo‘shib, “ona tilim” deyish xato. Chunki “ona tili” deganda qaratqich kelishigining “-ning” qo‘sishmchasi bor, faqat u aks etmayapti, xolos. Chunki turkiy tillarning shunday imkoniyati borki, “-ning”ni ishlatmasdan, ya’ni tushirib qoldirganda ham u vazifasini bajaraveradi. Masalan, “maktab o‘quvchisi”, “davlat idorasi”. Holbuki, aslida, bu yerda “maktabning o‘quvchisi”, “davlatning idorasi” ko‘zda tutilyapti. “Ona tilim” desak, “onamning tilim” bo‘lib qoladi. “Ona tilim” deb qo‘llayapmiz, xato bilan ishimiz yo‘q. Buni ba’zilarning “Adabiyot gazetamiz” deb gapishtishi yoki yozishida ham ko‘ramiz. Uchinchi shaxsda “adabiyot gazetasi” deyish mumkin, uni birinchi shaxsga olib bo‘lmaydi. Xuddi shunday, “yozuvchilar uyushmamiz” deb ham bo‘lmaydi. Bunga o‘xhash ayanchli xatolarni har doim guvohi bo‘lamiz. Bularidan tashqari, jonajon yurtimiz ko‘chalarida yevropa madaniyati allaqachon o‘rnashib olgan. Ko‘chalardagi e’lonlarda ham inglizcha, ruscha so‘zlar ko‘payib ketgan. Masalan: *Cafe*, *Bookshop*, *Hotdog* va boshqalar. Aslida shu jumlalar o‘rniga choyxona, kitob do‘koni kabi so‘zlar bo‘lishi joiz emasmi? Ona tilimiz faqatgina ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar, rasmiy muloqotlar uchungina zarur bo‘lib qolayotgani achinarli hol. Nega biz o‘zga millat tilini o‘rganamiz-u, ular bizni tilni o‘rganishmaydi? Javobi



shuki, biz tilimizni targ‘ib qilmay qo‘ydik. Bir eslaylik bizdan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Lutfiy, Uvaysiy, Nodira, Zulfiya, Hamid Olimjon, Oybek, Abdulla Qodiriy, O‘tkir Hoshimov va boshqalar. Ular yurtimiz uchun, tilimiz uchun kurashishgan, jon fido qilishgan. O‘zlaridan keyingi avlod uchun tilni, millatni saqlab qolish maqsadida yashashgan. a’lumotlarga ko’ra Fransiya davlatida fransuz tilida gapirmasangiz ular sizga javob berishmas ekan, sababi ular o‘z tilini yo‘qolib ketmasligi uchun shunday yo‘l tutishar ekan. Germaniya nemis tilini targ‘ib qilishni hech qachon to‘xtatmaydi, ular tilini, urf-odatlarini qadrlaydi va e’zozlaydi. Buyuk davlatlar tilini yo‘qotmaslik uchun nimalar qilmoqda, biz-chi? Nega bizning yosh avlodimiz chet elda o‘qish,yashash,ishlash uchun ularning tilini o‘rganishmoqda,til sertifikatlarini qo‘lga kiritmoqda,ammo, biz yurtimizga ta’lim olish,ishlash va yashash uchun kelayotgan qatlamdan tilimizni o‘rganishini talab qilmayapmiz....? “Til qilichdan o‘tkir” degan maqol bor. Ona tilimiz Konstitutsianing 4-moddasida ham mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf odatlari va an’analarini hurmat qilishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Qonuniy asosimiz bor ekan, nega biz buni talab qila olmayapmiz?

O‘zbek tiliga inglizcha so‘zlarning o‘zlashish yo‘llari turlichadir. Agar tushuncha aynan o‘zbekcha nomlanishga ega bo‘lmasa yoki o‘zining ijobiy va samarali ta‘siriga ega bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilmoqda. Masalan, chat(chat)-suhbat, bifshteks(beefsteaks) – qovurilgan mol go‘shtini qayлага solib beriladigan ovqat turi. Shu kabi so‘zlarning o‘zbek tilida aniq va lo‘nda izohi yo‘q. Shuning uchun ular ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelgan. Hozirgi paytda radioeshittirish, OAV, gazeta va jurnallarda ko‘plab inglizcha o‘zlashma so‘zlarga ko‘zimiz tushadi. Mashhur siyosiy arboblar, siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar o‘zlarining nutqlarida ilmiylikni ifodalash uchun ko‘plab o‘z sohalariga doir inglizcha neologizmlardan foydalanishadi. Jumladan, kosmodrom, konflikt, televide niye, tender, reyting, marketing kabi so‘zlar ham o‘zining qo‘llanilish doirasi va sohasiga ega. Mustaqillikdan so‘ng tilimizga brifing – briefing, injenering-



engineering, imidj – image, visual – visual, organayzer – organizer kabi so‘zlarning kirib kelishi tezlashdi.

Tilimizning asl shakli va milliy ruhini saqlash barchamizning oliy burchimizdir. Chet tilidan kirib kelayotgan ko‘pgina so‘zlar o‘zbek tiliga salbiy ta’sir o‘tkazishda davom etmoqda. Bu ta’sir tabiiy jarayon bo‘lib, globalizatsiya davrida muqarrar hisoblanadi. Bu o‘rinda tilshunos olim N.Mahmudov ta‘kidlaganidek, o‘zbek tilidagi xorijiy o‘zlashmalarning me‘yori va milliyligi malasalasi ma‘naviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda saqlash lozim[1]. Ya‘ni har bir o‘zlashayotgan so‘z o‘zining milliyligi, ma‘nosи jihatidan o‘zbek mentalitetiga mos kelishi va haqiqatan ham bu so‘z o‘zbek tili lug‘atiga kerakligi jihatidan tahlil qilinishi kerak. O‘zbek tilining milliy o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun til siyosatini mustahkamlash, adabiy me’yorlarni targ‘ib qilish va yosh avlodni til madaniyatiga e’tiborli bo‘lishga undash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyevning “Ta’lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi” videoselektordagi nutqi. 30.10.2020 y, ZiyoNET.uz.
2. N.Mahmudov. O‘zbek tili – xalq ruhining ko‘zgusi. // Sog’lom avlod uchun jurnali. Toshkent, 2016-yil 9-son 20-26 betlar.
- 3.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAJ&citation_for_view=3bpt6QUAAAAJ:4MWp96NkSFoC
4. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent, 2007, B. 271.
- 5.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=3bpt6QUAAAAJ&citation_for_view=3bpt6QUAAAAJ:dfsIfKJdRG4C
6. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldoshev Sh. 3-sinf Ona tili darsligi. Toshkent, 2019. -B. 360.